



TA'LIM JARAYONINI SIFAT SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Gazibekova Gulavza Ergashevna

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi
Angren universiteti, O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar, uning tarkibi va mazmunini takomillashtirishga nisbatan yangicha yondashuvlarning tatbiq etilishi, ta'lim klasterining ilmiy-pedagogik jihatlari, bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirib o'tilgan hamda ta'lim sifati samaradorligiga oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *modernizatsiya, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, klaster, pedagogik ta'lim klasteri, omillar, tanlov nazariyasi, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, individuallashtirish, standartlashtirish.*

Respublikamiz ta'lim tizimida ko'plab islohatlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar kuzatildi. Bunga ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmaligiga sabab bo'lmoqda.

Tizimdagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida keyingi yillar mobaynida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga oid bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Intellectual salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashtirish jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Muammo bo'yicha xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, klaster yondashuvi asosida ta'limni rivojlantirish 1990 yillarda M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi va rivojlanishining amaliy natijasi sifatida Yevropada boshlangan [1]. "Cluster Initiative GreenBook" monografiyasining muallifi tomonidan o'tkazilgan dunyoning turli mamlakatlaridagi ikki yuzdan ortiq klasterlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyat va texnologiyalarni tarqatish klasterlar faoliyatining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.



Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida Rossiya Federatsiyasida ta'limni rivojlantirishga klaster yondashuvi individual sub'ektlar va umuman klaster ishtirokchilarining o'ziga xos afzalliklarini kuchaytiradigan ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshiriladigan klaster sub'ektlarining o'zini va o'zaro rivojlantirishga asoslangan (T. I. Shamova [3], Ye. I. Pavlova [4]). Rus tadqiqotchisi V.A.Bolotovning fikricha, klaster doirasida yuqori sinf va kasb-hunar kollejlari, bolalar bog'chasi va quyi sinflar, kollej o'qituvchilari va maktablarning ixtisoslashtirilgan sinflari o'qituvchilarining o'zaro dars berish imkoniyatini yaratish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim klasterlari tizimi bolaga yoshligidan rivojlanish vektorini topishga va kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lishiga yordam beradi.

Uzluksiz pedagogik ta'lim o'quv-ilmiy innovatsion klasterining konseptual va nazariy-metodologik yondashuvi taniqli belarus olimlari A.I.Juk va A.V.Torxovalar tomonidan ishlab chiqilgan [6]. Sifat, zamonaviylik, ochiqlik, uzviylik va uzluksizlik uzluksiz pedagogik ta'lim o'quv-ilmiy innovatsion klasterining o'ziga xos afzal jihatlarini tashkil qiladi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko'rsatmalari bo'yicha bir qator o'zbek olimlar, jumladan, U.Sh.Begimqulov, O.Musurmonova, M.S.Mustafaeva, B.R.Adizov, R.Sh.Axliddinov, Yu.N.Abdullaev, M.X.Mahmudov, R.Ishmuhammedov, L.V.Golish kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida biz ko'tarib chiqayotgan ta'lim sifatini takomillashtirishdagi muammolar, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta'limni ijodiy tashkil etish, umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish, ta'limni demokratlashtirish va boshqa xususiyatlar bo'yicha izlanishlar olib borgan.

O'zbekiston ta'lim tizimida klasterlashtirish modelini tatbiq qilish esa so'nggi yillarda ko'zga tashlanmoqda, ayniqsa, U.N.Hodjamqulov, S.A.Toshtemirova, A.Boymurodov, Sh.I.Botirova, D.Qarshieva, G.N.Sharipova, N.M.Koshanova va boshqa ko'plab o'zbek tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida pedagogik ta'lim klasteri asosida mintaqaviy ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, sifat samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha innovatsion g'oyalar joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va ularning amaliy tatbig'i borasida samarali tajriba tahlillari bayon qilingan.

Natija va muhokama. Ta'lim sifati samaradorligini oshirish keng jamoatchilik bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda mavjud vakillik organlarining o'rni muhimdir, ular tomonidan sifatli ta'limni samarali ta'minlash rejalarini ishlab chiqish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini jihozlar va kerakli axborot resurslari bilan ta'minlash, sifatli ta'limga to'sqinlik qiluvchi omillarni hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifati ta'limning maqsadi va strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir, vaholanki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'limida aniq belgilangan maqsadning yo'qligi, uning noaniqligi va an'anaviy ta'lim strategiyasining saqlanib qolingani uning samaradorligini yanada pasayishiga olib kelmoqda. Chunki



ta'limning ananaviy strategiyasi o'sib borayotgan insonning umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, bu esa ta'limda ko'plab yo'qotishlarga olib keladi, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining keyingi ijtimoiy moslashuvi imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ta'lim jarayonining sifat samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan:

- har bir o'quvchi uchun uning qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning universal psixologik va pedagogik nazariyaning yo'qligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarining reproduktiv ta'lim texnologiyalari ommaviy amaliyotida fikrlashning samarali turlarini rivojlantirish emas, balki tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni saqlab qolingani;
- o'qituvchilarning iqtidorli bolalar bilan ishlash bo'yicha nazariy jihatdan yo'naltirilmaganligi, ular tomonidan bolalarning qobiliyatiga nisbatan kognitiv faolligi darajasiga yetarlicha baho berilmasligi;
- ta'limning ijtimoiy motivatsiyasining pasayishi va umuman jamiyatning ma'naviy madaniyati
- Olib borilayotgan tadqiqot davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi yuqorida aniqlangan omillar tahlili va uni hal qilish usullari taqdim etiladi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirishda yangicha innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jamiyatning pirovard maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Vaholanki, ta'lim tizimida bu kabi amaliyotlarni rivojlantirish murakkab iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy boshqaruvni tashkil etish bilan boshlanadi. Aynan bu jarayon ta'lim tizimini klasterlashtirishni talab qiladi. Shu o'rinda bugungi kunga kelib ta'limga nisbatan qo'llanilib kelinayotgan klaster terminining mohiyatiga to'htalib o'tsak, klaster bu - o'zaro bog'langan tashkilotlar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi firmalar hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarning jo'g'rofiy belgi bo'yicha birlashtirilgan guruhidir. Ta'limga nisbatan esa klaster modeli ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.)lar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmidir.

Ma'lumki, o'qituvchilar sifatli ta'lim berishda asosiy ishtirokchilar bo'lib, shu sababli birinchi navbatda, sifatli ta'limni ta'minlashda ularning bilimini oshirish, mehnat faoliyatlari davomida ularni rag'batlantirib borish va toifalarni oshirishga ko'maklashadigan malakalarni rivojlantirish muhimdir.

Ta'lim sifati muammosi shaxsning barkamollik sifati muammosi bilan hamda uning ijtimoiy taraqqiyotni jamiyat taraqqiyotining omili sifatida shakllantiruvchi ta'lim intellektini shakllantirishi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim sifatini ta'minlanishida tanlov nazariyasi muhim sanalib, bu orqali o'quvchi rag'batlantiriladi, ya'ni o'quvchi maktabda o'ziga xos bo'lgan sifatli mavjudlik va unga erishishga olib keladigan faoliyatni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga o'qitish va o'rganish



vaziyatlarida tasavvur qilishga yordam beradi. Tanlov nazariyasining yana bir muhim jihati ta'lim jarayonidagi qiyin vaziyatlarda ham o'quvchilarni majburlamasdan ularni boshqarishning samarali usullari orqali yaxshi natijalarga erishiladi. Boshqacha qilib aytganda, tanlov nazariyasi orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojiga qarab nimalarga ko'proq e'tibor qaratishni bilib olishi mumkin.

Shu bilan birga tanlov nazariyasining zaif tomonlari ham mavjud bo'lib, bu birinchi navbatda, o'qituvchining mas'uliyati va o'quvchining hatti-xarakati o'rtasidagi ziddiyatda o'z aksini topadi. O'qituvchi maktabda o'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan muhit yaratishga mas'uldir, lekin ba'zan o'quvchilar o'z hatti-harakatlarini o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlaydilar, ko'p hollarda bu tanlov ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Bunday holatlarni vujudga kelmasligi uchun o'qituvchi o'quvchini tanlov nazariyasida nimalar muhimligi, o'zini-o'zi rivojlantirishga xizmat qiladigan tanlovlarni tanlash bo'yicha tavsiyalar berishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchini sog'lom va ijodiy shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan maktab ta'limining yangi tushunchalari zarurdir. Ta'lim sifati masalasini o'rganishda o'qituvchilarning o'zlari maktab ta'limi sifati haqidagi fikrlarini o'rganishi juda muhim bo'lib, bu ularning malakasini oshirish jarayonining maqsadi va mazmunini moslashtirishga imkon beradi.

Ta'lim sifatini ko'rsatuvchi birinchi asosiy e'tibor qaratilgan jihat bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish darajasi, bilim darajasi, natijasi bilan belgilanadi. Aksariyat o'qituvchilarning ta'kidlashicha, ta'lim sifati bu o'zini-o'zi o'qitish va ta'limni oliy o'quv yurtlarida davom ettirib, qo'shimcha ta'lim olish uchun yetarli bo'ladigan bilimlar yig'indisidir, ta'lim sifati bu o'quv fanlari bo'yicha yuqori darajadagi bilim, oliy o'quv yurtlariga kirishda raqobatga bardosh beradigan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatidir, shu bilimlarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Ta'lim sifatini belgilab beruvchi keyingi xususiyat sifatida intellektual rivojlanish, ta'lim va o'z-o'zini o'qitish motivatsiyasi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati bilan belgilanishi muhimligini e'tirof etish mumkin. Ta'lim sifati intellektual rivojlanishning yuqori qobiliyatini o'z ichiga olishi, o'quvchining ijodiy salohiyati, olingan bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash va uni qo'llash qobiliyatining muhimligi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqori intellektual qobiliyat mustaqil ijodiy faoliyat uchun muhim bo'lib, bu o'quvchining ta'lim sifati madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Ta'lim sifatini ta'minlanishida o'quv jarayoning sifati muhimligi keyingi xususiyat sifatida baholanadi. Ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchining professionalligi, zamonaviy texnologiyalar va o'quv jarayonini zamonaviy usullarda olib borish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchining yetarli qobiliyatga ega ekanligi, tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berish qobiliyatining mavjudligi, dars jarayonlarining olib borilishida o'qituvchining haqiqiy boshqaruvchilik mahorati muhimligi e'tirof etilgan. O'quvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi esa ta'lim sifatini



ta'minlashdagi keyingi o'rinda belgilangan xususiyatlar sirasiga to'g'ri keladi. Natijalar tahliliga ko'ra, insonda doimiy yaxshi tomonga o'zgarish istagi, hayotda yuqori natijaga erishish uchun harakat qilish qobiliyati, insondagi mas'uliyat, mavjud tizimga moslashuvchanlik, o'z pozitsiyasini aql bilan boshqarish va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qobiliyati, o'quvchining shaxs sifatida o'zini-o'zi anglash qobiliyati kabi xususiyatlar ta'lim sifatini ta'minlashda muhim sanaladi.

Ta'lim sifatini ta'minlashga katta ahamiyat beradigan xususiyatlardan hisoblangan ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirishga ham katta e'tibor berish zarur. Bugungi kunda o'qituvchi o'quvchini doimiy siquvda, majburiyatda ushlab turish, talablarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirishi mumkin mazmunidagi harakatlar ta'limni zamonaviylashtirishga katta to'siq bo'lib kelmoqda. Ta'limni zamonaviylashtirishga, uning sifatini ta'minlashga to'siq bo'layotgan omillar turlicha bo'lib, aynan shu yo'nalishda tadqiqot olib borgan izlanuvchilar tomonidan uning turli jihatlariga etibor qaratilmoqda: ma'naviyatning yo'qligiga, qadriyatlarining inqirozi, professionallikning yetarli darajada emasligi, mintaqada ta'lim tizimida mutaxassislarning kamligi, bitiruvchilarning ijtimoiy sharoitlarga moslasha olmasliklari, mintaqaviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan ixtisosliklarni shakllantirishga ahamiyat berilmasligi, vakillik organlari, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning keng yo'lga qo'yilmaganligi kabi omillarni keltirib o'tish mumkin.

Taklif va xulosalar. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun eng muhim umumiy maqsad alohida bo'lgan elita guruhlarni shakllantirish va ular bilan yanada ko'proq ish olib borish emas, balki, har bir shaxs uchun sifatli hayotni ta'minlashda, kasbiy jihatdan o'zini-o'zi belgilaydigan, zarur vaziyatlarda hatto kasbini o'zgartirishga qodir bo'ladigan shaxsning ijtimoiy va kasbiy harakatchanligini ta'minlaydigan, jamiyatdagi yangi ijtimoiy o'rin va vazifalarni tez o'zlashtira oladigan raqobatbardosh shaxslarni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablarida sifatli ta'limni ta'minlashda quyidagi takliflarni taqdim qilamiz:

- o'quvchilarning individual, madaniy, va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish va shaxsiyatni rivojlantirishni tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarning bazaviy va mintaqaviy standartlari asosida ishlab chiqish;

- shaxs manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash, ta'limni insonparvarlashtirish;
- ta'lim shakllari xilma-xilligi va bilish asoslari va shakllari orqali demokratlashtirishni rivojlantirish;

- ta'limning huquqiy asoslarini ta'minlash va hokazo.

Ta'lim beruvchilar rahbarligida dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil holda ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish ta'lim sifatini takomillashtirishning yana bir muhim samarali usullaridan biridir. Bu maqsadga erishish uchun, albatta o'quvchilarning bilim faolligini yanada faollashtiradigan va ta'lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish birinchi o'rindagi vazifa hisoblanadi.



Yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladigan ta'limni individuallashtirishni unutmash kerak. Ta'lim sifatining eng muhim qiymati uning individuallashtirishi bo'lishi kerak. Ta'limni individuallashtirish – bu har bir o'quvchi va o'qituvchining salohiyatini shakllantirish va ro'yobga chiqarish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga individual holatda yondashishdir.

Zamonaviy ta'lim tizimining muhim shartlaridan biri umumiy o'rta ta'lim maktablari hayotini shaxsiy hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan ta'limdan iborat bo'lishidir. Shu sababli ham maktab ta'limida shaxsiy intellektual va ma'rifiy salohiyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi shaxsni rivojlantirish va tarbiyalash birinchi o'rinda turishi kerak. Ta'lim mazmunida birinchi navbatda an'anaviy ta'limning quyi yo'nalishli xususiyatlarini tark etish zarur. Ta'lim mazmuni bo'yicha bilimlar uslubiy va madaniy holatda bo'lishi sifat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalardan biri – ta'lim sifati muammosini hal qilishga imkon beradigan ta'lim muassasalari tashqi muhitining o'zgarishiga, jamiyatning ehtiyojlariga, ijtimoiy tartibga, qanchalik samarali va pedagogik jihatdan asoslangan uslub va texnologiyalar tanlanishiga munosib javob beradigan usul va vositalarni joriy qilgan va amaliyotlarda tatbiq etadigan yangicha innovatsion yondashuvlarni istemolga kiritishdir.

REFERENCES:

1. Eshmuminovich, T. A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Bphilosophy*, 20.
2. Tursoatov, A. E. (2023). Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari. *Mugallim*, 1(1), 55-59.
3. Tursaotov, A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Science and innovation*, 2(B6), 20-26.
4. Турсоатов, А. Э. (2020). Ўқувчи-ёшларни синфдан ташқарида ўтказиладиган машғулотларнинг самарадорлигини ошириш йўллари. *TDPU xabarlari*, 1(9), 121-123.
5. Bobomurod Khujomov, A. T. (2019). Professional Competencies As Integral Qualities Of A Specialist's Personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 39-43.
6. Nizami, X. B. X. (2023). Didactic Principles of Development of Physical Qualities in School Students. *PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3(5), 36-38.
7. Haytmurodovich, K. B. (2022). Foundation of Modern Struggle. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(12), 14-15.
8. Хужомов, Б. Х. (2020). Мустақил таълим жараёнини такомиллаштиришнинг замонавий усуллари. *Fan-Sportga*, (2), 15-16.



9. Khujomov, B., & Tangriyev, A. (2019). Professional competencies as integral qualities of a specialist's personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(4).
10. Nusratilloevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.
11. Муминова, М. Т., Рахматуллаева, Ш. Б., & Худайкулова, Г. К. (2023). Постдипломное образование: судьба резидентов магистратуры после прохождения специализации.
12. Акбашева, Д. М., Белова, С. К., Васильев, А. А., Везетиу, Е. В., Вовк, Е. В., Дерябин, Н. И., ... & Углицких, О. Н. (2023). НАУКА, ОБЩЕСТВО, ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.
13. Худайкулова, Г. К., Илясова, М. М., Садирходжаева, Н. С., & Исраилов, Ж. Д. (2023). ВНЕДРЕНИЕ НОВОГО ПОДХОДА К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
14. Suyunov, V. (2021). Tezaurus va kompyuter texnologiyalariga doir. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
15. Suyunov, V. T. (2021). Morphology and national-cultural features of medical terms related to color in the uzbek language. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(1), 193-199.
16. Suyunov, V. T. (2021). Etymology of medical terms translated into Uzbek from other languages. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(9), 315-321.
17. Kushakova, M. N., & Salimov, I. (2023). Requirements to the specialist of the Digital Economy. *Conferencea*, 22-28.
18. Кушакова, М. Н. (2023). Этапы распространения высоких цифровых технологий в предприятиях. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 595-598.
19. Kushakova, M. N. (2023). New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 08039). EDP Sciences.
20. Kushakova, M. N. (2022). Management methods for rail transport service personnel. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 881-883.
21. Абдурашитова, Е. В. (2023). Семья-Основной Фактор Воспитания Конкурентно-Способной Личности. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 66-70.
22. Vladimirovna, A. E. (2023). Tasks, The Implementation of Which Will Ensure the Food Security of the Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 16, 73-76.
23. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.



24. Abdullajonovna, U. A., Xashimovna, K. D., & Bakhtiyarovna, A. B. (2020). Estimated attitude of students to cultural and leisure activities at the university. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(3), 268-281.
25. Kasimova, D. K. (2017). Problems of Students' Social Adaptation on the Basis of Values Assimilation. *Eastern European Scientific Journal*, (4).
26. Eshnazarova, M., & Nurmatov, B. (2019). The current state and content of the course Methods of calculations. *International Journal of Research Culture Society*, 3(3), 79-83.
27. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
28. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.